

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI
**AKADEMIK LITSEYLARGA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI
O‘QUVCHILARINI TANLAB OLISH, O‘QISHGA QABUL QILISH, ULARNING
O‘QISHINI KO‘CHIRISH VA O‘QISHDAN CHETLATISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-son [qarori](#) ijrosini ta‘minlash, shuningdek, akademik litseylarga umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining iqtidorli o‘quvchilarini tanlab olishning samarali mexanizmini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Akademik litseylarga umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [2-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari 2018-yil 1-iyundan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Q.V. Akmalov va O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 23-mart,
212-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

Akademik litseylarga umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom akademik litseylarga umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini (keyingi o‘rinlarda o‘quvchilar deb ataladi) tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Madaniyat vazirligi tizimidagi akademik litseylarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Akademik litseylarga o‘quvchilarni tanlab olish ilovadagi [1-sxemaga](#) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Xalq ta‘limi vazirligi bilan birgalikda belgilagan tartib asosida quyidagi bosqichlarda:

o'quvchilarning psixologik-pedagogik jihatdan rivojlanishiga tashxis qo'yish (dastlabki tanlov);

o'quvchilarni akademik litseylarga qabul qilish bo'yicha saralash imtihonlari (test sinovlari yoki ijodiy imtihonlar) orqali amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan dastlabki tanlov har yili 10-iyunga qadar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularni akademik litseylarga tanlab olish maqsadida ular o'rtasida psixologik-pedagogik tashxis qo'yish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

5. Dastlabki tanlovdan o'tgan o'quvchilarni akademik litseylarga o'qishga qabul qilish uchun saralash imtihonlari tashkil etiladi.

6. Akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish kvotasi har bir akademik litseyning imkoniyatlarini hisobga olgan holda hamda tizimida akademik litseylar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralarning takliflari asosida har yili 15-iyunga qadar O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Har bir akademik litseyda o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha akademik litsey direktori raisligida Maslahat kengashi tashkil etiladi. Maslahat kengashining tarkibi, uning vakolatlari, huquq va majburiyatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

8. Dastlabki tanlovdan o'tgan o'quvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning saralash imtihonlariga qatnashish haqidagi arizalari Maslahat kengashi tomonidan har yili 20-iyundan 30-iyunga qadar qabul qilinadi.

9. O'quvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar Maslahat kengashiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

ta'lim yo'nalishi, o'quv tili, shakli ko'rsatilgan ariza (chet tilidan saralash imtihoni topshirish belgilangan yo'nalishlarda arizada qaysi chet tilidan saralash imtihoni topshirish hamda saralash imtihonni o'tkazish qoidalari bilan tanishganligi ko'rsatiladi);

shaxsini tasdiqlovchi hujjat (tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport) nusxasi;

3,5x4,5 sm o'lchamdagi 6 ta rangli fotosurat (fotosuratning orqa tomoniga o'quvchi o'qigan maktab direktori o'quvchining shaxsini tasdiqlab imzo qo'yadi va maktabning muhri bilan tasdiqlaydi.

Tanlovdan tashqari o'qishga imtiyozli kirish huquqiga ega bo'lgan xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalar g'oliblari asl nusxadagi diplom, sertifikat, guvohnoma yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni topshiradilar.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirida Maslahat kengashi o'quvchining hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

10. Hujjatlar qabul qilishning belgilangan muddatlari tugagandan so'ng hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taqiqlanadi.

3-bob. O'quvchilarni akademik litseylarga o'qishga qabul qilish bo'yicha saralash imtihonlari

11. O'quvchilarni akademik litseylarga o'qishga qabul qilish bo'yicha saralash imtihonlari har yili 10-iyuldan 25-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining qo'shma qarori bilan tasdiqlangan reja asosida amalga oshiriladi.

12. Saralash imtihonlarini o'tkazish muddatlari va tegishli yo'nalishlar bo'yicha saralash imtihonlari topshiriladigan fanlar ro'yxati va fanlar bo'yicha saralash imtihoni shakli ular o'tkazilishidan kamida o'n kun oldin o'quvchilarga ular ta'lim olgan maktablar orqali xabar qilinadi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi va akademik litseyning e'lonlar taxtasiga ilib qo'yiladi.

13. Saralash imtihonlari shakliga ko'ra ijodiy imtihonlar yoki test sinovlari tarzida tashkil etiladi.

Ixtisoslikning xususiyatidan kelib chiqib ayrim ta'lim yo'nalishlarida 3 ta umumta'lim fanidan ko'p bo'lmagan fanlardan ijodiy imtihonlar o'tkaziladi. Ijodiy imtihonlar og'zaki, yozma ish, insho, bayon, diktant shaklida bo'lishi mumkin. Ijodiy imtihonlar har bir fan bo'yicha Maslahat kengashi tavsiyasiga asosan oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadigan har biri kamida 5 — 7 nafar a'zodan iborat Imtihon komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Akademik litseyning ayrim ta'lim yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib 3 ta umumta'lim fanidan test sinovlari o'tkaziladi.

14. Saralash imtihonlarini o'tkazish, rasmiylashtirish va natijalarini e'lon qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori akademik litseylarga kirish uchun sinovlar katta sig'imdagi binolarda o'tkazilishi, test jarayonining eng ko'p darajada ochiqligi va shaffofligini ta'minlab, videokuzatuvlar orqali jamoatchilik, shu jumladan, o'quvchilarning ota-onalari sinovlarni onlayn rejimida kuzatib borishlariga imkoniyat yaratilishini ta'minlaydilar.

16. Saralash imtihonlarining natijalari test sinovlari yoki ijodiy imtihonlar o'tkazilgan kunning ertasiga tegishlilik bo'yicha oliy ta'lim muassasasi yoki akademik litseyning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

4-bob. Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalar g'oliblarini akademik litseylarga o'qishga qabul qilish

17. Xalqaro olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalar hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilgan fan olimpiadalari III bosqichida 1 — 5-o'rinlarni egallagan 9-sinf

o'quvchilar saralash imtihonidan ozod etiladi va akademik litseylarning taalluqli ta'lim yo'nalishiga belgilangan qabul kvotasidan tashqari qabul qilinadi.

18. Vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilgan tanlov va musobaqalarning respublika bosqichida 1 — 3-o'rinlarni egallagan 9-sinf o'quvchilari ushbu vazirliklar va idoralar tizimidagi akademik litseylarga o'tkaziladigan saralash imtihonlaridan ozod qilinadi va tegishli akademik litseylarning taalluqli ta'lim yo'nalishiga belgilangan qabul kvotasidan tashqari qabul qilinadi.

5-bob. O'quvchilarni akademik litseylarga o'qishga qabul qilishni rasmiylashtirish

19. Akademik litseylarga o'qishga qabul qilingan o'quvchilar ro'yxati saralash imtihonlari natijalariga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qabul kvotasiga muvofiq shakllantiriladi.

20. Akademik litseyga o'qishga qabul qilingan o'quvchilarning 9-sinfni tamomlaganlik to'g'risidagi hujjatning asl nusxasini taqdim etish uchun akademik litsey tomonidan o'quvchi tahsil olgan umumiy o'rta ta'lim maktablariga so'rov yuboriladi.

21. Akademik litseyga o'qishga qabul qilingan o'quvchilarni akademik litseyga o'qishga qabul qilish to'g'risida akademik litsey direktorining tegishli buyrug'i har yili 30-iyulga qadar rasmiylashtiriladi va buyruq nusxasi uch kun muddatda tegishli oliy ta'lim muassasasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasiga taqdim etiladi.

6-bob. Akademik litsey o'quvchilarining o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi

22. O'quvchilar o'qishini bir akademik litseydan boshqasiga ko'chirish bo'yicha arizalar yozgi ta'til davrida 20-iyundan 20-iyulgacha qabul qilinadi hamda 2-ilovadagi [sxemaga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

23. O'quvchilar o'qishini bir ta'lim muassasasi doirasida ta'limning turdosh va mos yo'nalishlari bo'yicha ko'chirish akademik litsey direktorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

24. O'quvchilar o'qishini turdosh va mos yo'nalishlar bo'yicha bir ta'lim muassasasidan boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

25. O'quvchilar o'qishini bir akademik litseydan boshqasiga ko'chirishda o'quvchi ta'lim olayotgan akademik litseyga o'quvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar quyidagi hujjatlar yig'ma jildini taqdim etadi:

a) o'quvchining ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning yozma arizasi, o'quvchi voyaga yetgan bo'lsa, o'zining arizasi;

b) ta'lim muassasasining nomi, ta'lim yo'nalishi, kurs, guruh ko'rsatilgan holda reyting daftarchasining nusxasi;

v) o'quvchining tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma hamda ota-onasi (yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar)ning doimiy yashash joyi ko'rsatilgan pasporti nusxasi, pasport olgan o'quvchining pasporti nusxasi;

26. O'qishni ko'chirish to'g'risidagi o'quvchining hujjatlar yig'ma jildi bir hafta muddatda akademik litsey direktori tomonidan oliy ta'lim muassasasining yo'llanma xati asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan har yili 1-avgustga qadar hujjatlar yig'ma jildi qabul qilinadi hamda 15-avgustga qadar arizalar ko'rib chiqilib, natijalari haqida tegishli oliy ta'lim muassasasiga yozma xabar beriladi.

27. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan olingan yozma xabar asosida oliy ta'lim muassasasi ariza beruvchini yozma ravishda xabardor qiladi.

28. O'qishni ko'chirishga ruxsat berilgan o'quvchini qabul qiluvchi akademik litsey direktori 3 kun muddatda o'quvchini o'qishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi.

29. O'quvchini qabul qiluvchi akademik litsey direktori o'quvchi ilgari o'qigan akademik litsey direktoriga o'quvchining shaxsiy hujjatlarini yuborish haqida so'rovnoma yuboradi. So'rovnomani olgan akademik litsey direktori o'quvchini o'quvchilar safidan chiqarish haqida buyruq chiqaradi va uch kun muddatda o'quvchining shaxsiy hujjatlarini o'qishga qabul qilgan ta'lim muassasasiga jo'natadi.

30. Akademik litsey o'quvchilari:

a) o'qishi boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

b) doimiy yashash uchun boshqa hududga yoki mamlakatga chiqib ketganda;

v) sudning qarori bilan ozodlikdan mahrum etilganda;

g) o'quvchining, uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning tashabbuslariga ko'ra o'z arizasiga muvofiq;

d) o'quvchi tomonidan o'quv dasturi va o'quv rejasi talablari bajarilmaganda;

e) vafot etganligi sababli o'qishdan chetlatilishi mumkin.

31. O'quvchilar 30-bandning "**a**", "**b**", "**v**", "**g**" va "**e**" kichik bandlari bo'yicha o'quv yili davomida, "**d**" kichik bandiga asosan esa akademik litsey pedagogik kengashining qaroriga muvofiq o'quv semestri tamom bo'lganidan so'ng 3-ilovadagi **sxemaga** muvofiq o'qishdan chetlatilishi mumkin.

O'qishdan chetlatilgan o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar akademik litsey direktori tomonidan qaror qabul qilingan kundan boshlab bir hafta muddatda tegishli tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga taqdim etiladi.

32. O'quvchilarni o'qishdan chetlatishda hujjatlarning ishonchliligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun mas'uliyat akademik litsey direktoriga yuklanadi.

7-bob. Akademik litseylar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishi darajasiga muvofiq ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlariga nisbatan choralar ko'rish

33. Akademik litseylar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishi ko'rsatkichlariga muvofiq tizimida akademik litseylar mavjud bo'lgan tegishli oliy ta'lim muassasalarining rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari, mas'ul xodimlari va professor-o'qituvchilariga nisbatan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari ish beruvchi tomonidan qo'llaniladi. Bunda:

1) akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish darajasi 80 foizdan ortiq bo'lganda tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar, akademik litseylar direktorlari, o'quvchilari yuqori natija ko'rsatgan yo'nalishda dars mashg'ulotlarini tashkil etgan barcha professor-o'qituvchilarga keyingi o'quv yilining 1-yanvaridan boshlab o'quv yili yakuniga qadar ularning ish haqiga qo'shimcha ravishda 50 foiz miqdorida ustama haq oliy ta'lim muassasalarining oshirilgan to'lov-kontrakt tushumlari hisobiga amalga oshiriladi;

2) akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish darajasi:

70 foizdan 80 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 15 foizi miqdorida;

60 foizdan 70 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 20 foizi miqdorida;

50 foizdan 60 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 25 foizi miqdorida;

50 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 30 foizi miqdorida bir martalik jarima qo'llaniladi.

34. 33-bandning 2-kichik bandida belgilangan intizomiy jarimalar 2018/2019 o'quv yili yakunidan boshlab akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi darajasiga muvofiq tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari, o'quvchilari o'qishga kirmagan yo'nalishda dars mashg'ulotlarini tashkil etgan barcha professor-o'qituvchilariga (xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar bundan mustasno) nisbatan qo'llaniladi.

35. 2017/2018 o'quv yili yakunida akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi darajasi 50 foizdan past bo'lganda tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari, o'quvchilari o'qishga kirmagan yo'nalishda dars mashg'ulotlarini tashkil etgan

barcha professor-o'qituvchilariga (xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar bundan mustasno) nisbatan bir oylik lavozim maoshining 15 foizi miqdorida bir martalik jarima qo'llaniladi.

36. Akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi darajasiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan rahbar xodimlarga keyingi o'quv yili davomida ish haqiga ustama belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

37. Intizomiy jazo o'quvchilarning akademik litseyga qabul qilinishidan to uni bitirib ketgunga qadar bo'lgan davrdagi o'qish jarayonining saviyasidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari va professor-o'qituvchilarining ish faoliyatiga alohida baho berilgan holda qo'llaniladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

38. Saralash imtihoni natijalaridan norozi bo'lgan o'quvchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun tizimida akademik litseylar mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida Apellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.


39. O'quvchilarni akademik litseylarga tanlab olish jarayonlaridan yoki oliy ta'lim muassasasining intizomiy jazo qo'llanilishi to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda yuqori turuvchi tashkilotga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

40. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
1-ILOVA

Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish va o'qishga qabul qilish

SXEMASI




Aкадемик лицейларга умумий о'рта та'лим мактаблари о'қувчиларини танлаб олиш, о'қишга қабул қилиш, уларнинг о'қишhini кo'чhириш ва о'қишдан чeтлатиш тaртиби тo'ғ'рисидaги [низомга](#)

2-ILOVA

Aкадемик лицей о'қувчиларини о'қишhini кo'чhириш тaртиби

SXEMASI



Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

Akademik litsey o'quvchilarini o'qishdan chetlatish tartibi

SXEMASI



Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son [qaroriga](#)
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2018-yil 1-iyundan boshlab o'z kuchini yo'qotayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida" 2010-yil 7-iyundagi 109-son [qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi QT, 2010-y., 6-son, 28-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 22-fevraldagi PQ-2495-son qarori)" 2016-yil 4-maydagi 137-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2016-y., 5-son, 35-modda) ilovaning [2-bandi](#).

3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahar hokimligi boshqaruv apparati tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 12-iyundagi PQ-3050-son qarori)" 2017-yil

11-sentabrdagi 709-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 37-son, 995-modda) ilovaning [1-bandi](#).

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.03.2018-y., 09/18/212/1366-son)